Cho‘lga va qurg‘oqchilikka chidamli manzarali o‘simliklar bog‘ini kengaytirish ishlari

Fanlar akademiyasi Ellikqal’a botanika bog‘i tomonidan Mo‘ynoq tumanida “Oroldagi bog‘im” (“My garden in the Aral sea”) loyihasi doirasida cho‘lga va qurg‘oqchilikka chidamli manzarali o‘simliklar bog‘ini kengaytirish bo‘yicha bir qator amaliy ishlar qilindi.

“Mo‘ynoq” tajriba-ishlab chiqarish uchastkasida maxsus maydon ajratilib, bugungi kunga qadar 17 turdagi jami 3383 dona daraxt ko‘chatlari ekildi.

Bog’ xodimlari tomonidan katalpa (Catalpa speciosa), shumtol (Fraxinus Americana), zarang (Acer negundo), akatsiya (Albizia julibrissin), sumax (Rhus glabra), gledichiya (Gleditsia triacanthos), amorfa (Amorpha fruticosa), yapon saforasi (Sophora japonica), aylant (Ailanthus altissima), gujum (Ulmus densa), na’matak (Rosa canina), ligustrum (Ligustrum vulgare), jiyda (Elaeagnus angustifolia), kornus (Cornus sanguinea) va kanada bagryannigi (Cercis canadensis) ko‘chatlari ekilib, iqlim sharoitlariga moslashishi bo‘yicha tajribalar o‘tkazildi.

Orolbo‘yi xalqaro innovatsiya markazi buyurtmasi bo‘yicha 17 tur o‘simlik urug‘i va ko‘chatlarini maxsus eritma tayyorlanib, har xil usullarda 2 gektar maydonga ekildi. Urug‘lar unib chiqishi nazorat qilindi. Natija esa quvonarli bo‘ldi. Ko‘chatlar o‘sib rivojlanishi Ellikqal’a tumanidagi natijadan ham yaxshi bo‘ldi. O‘stirilgan ko‘chatlarni Mo‘ynoqdagi aholi punktlarini ko‘kalamzorlashtirish, Orolqumning janubiy tomonida himoya uchun qalin qilib ekishga tavsiya berish mumkin.

Ellikqal’a botanika bog‘ida 7 tur (katalpa (Catalpa speciosa), suriya atirguli (Hibiscus syriacus), yukka (Yucca sp.), marjon daraxti (Sambucus nigra), uchqat (Lonicera nummulariifolia), semyonov zarangi (Acer semenovii)) ko‘chatlaridan 5000 tup tayyorlanmoqda. Bu ko‘chatlar suv yetarli bo‘lsa, shu yil ekiladi.

2023-yil erta bahordan mevali ko‘chatlardan olma, o‘rik, shaftoli, qaroli, nok, yong‘oq, anjir, anor, tok ko‘chatlarining har bir tupiga tuprog‘ini 10 kg dan biogumus bilan boyitib ekish reja qilindi. Birinchi yili har bir ko‘chatdan 30 donadan ekib, tajriba qilinadi. Shuningdek, bahorda har xil ko‘p yillik va bir yillik gul ko‘chatlarini ham ekish rejalashtirilmoqda.